ANDIJON VILOYATI ANDIJON SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 21-avgust | 330-1-29-Q/24 | Andijon shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-264-sonli va shu mazmundagi Andijon viloyati hokimining 2024-yil 3-avgust kungi 288-1-0-Q/24-sonli qarorlari haqida

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik shonli sanasini chinakam umumxalq bayrami, ozodlik va saodat ayyomi sifatida ko‘tarinki kayfiyatda kutib olish hamda mamlakatimizning bugungi taraqqiyot darajasi, yuksalish sur’atlariga munosib tarzda nishonlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-264-sonli va shu mazmundagi Andijon viloyati hokimining 2024-yil 3-avgust kungi 288-1-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-264-sonli va shu mazmundagi Andijon viloyati hokimining 2024-yil 3-avgust kungi 288-1-0-Q/24-sonli qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

a) O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha respublika komissiyasining (keyingi o‘rinlarda – Respublika komissiyasi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

b) Respublikakomissiyasi:

bir hafta muddatda “Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanimiz!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda

targ‘ibot-tashviqot ishlari dasturini tasdiqlashi, mazkur dastur “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek, “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturi bilan uyg‘un holda tayyorlanishi;

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayrami (keyingi o‘rinlarda – Mustaqillik bayrami) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida, shuningdek, barcha shahar hamda tumanlar, qishloq va ovullarda munosib nishonlanishini ta’minlashi;

hududlarda keng aholi qatlamlari o‘rtasida Mustaqillik bayramiga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy anjumanlar, uch avlod uchrashuvlarini, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar, milliy kino kunlari, sayillar, madaniyat va sport tadbirlari, gastronomik festivallarni samarali o‘tkazish maqsadida atoqli ilm-fan namoyandalari, madaniyat va san’at arboblari, taniqli sportchilar, keng jamoatchilik vakillaridan iborat targ‘ibot guruhlarini tashkil etishi hamda ularning aniq reja asosida faoliyat yuritishini ta’minlashi;

Mustaqillik bayramiga bag‘ishlangan barcha tadbirlarning yuqori saviyada tashkil etilishi yuzasidan har bir hudud, vazirlik va idora rahbarlarining hisobotlarini o‘z yig‘ilishlarida muntazam ravishda eshitib borishi;

d) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o‘tkaziladigan asosiy bayram tadbirlarining dasturlarini tayyorlashga yuqori professional mahorat hamda tajribaga ega bo‘lgan ssenariychi va rejissyorlar, shoir va adiblar, bastakor hamda baletmeysterlar, sahna rassomlari, iste’dodli yosh ijrochilar, maqom va baxshichilik san’ati vakillaridan iborat ijodiy guruhlar keng jalb etilishi;

e) Joylarda Mustaqillik bayramini yuqori saviyada nishonlash maqsadida quyidagi:yurtimizda inson qadri, uning huquq va manfaatlari yetakchi o‘rinda turadigan ijtimoiy

davlat va xalqparvar jamiyat qurish yo‘lida amalga oshirilayotgan tarixiy ishlar, mehnatkash va bag‘rikeng xalqimizning bunyodkorlik salohiyati bilan erishilayotgan ulkan natijalarning mazmun-mohiyati haqida mahallalar, ta’lim muassasalari, mehnat jamoalarida ma’rifiy uchrashuv va suhbatlar o‘tkazish;

keyingi yillarda mamlakatimizda investisiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni har tomonlama kengaytirish, “yashil” va raqamli iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha hayotga tatbiq etilayotgan yirik dastur va loyihalar hamda bu borada qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarni aniq hayotiy misollar orqali keng yoritish;

sud-huquq tizimini isloh etish, shahar va qishloqlarimizni obod qilish, mahalla tizimini xalqimizga yanada yaqinlashtirish yo‘lidagi doimiy sa’y-harakatlar va ularning samarasi haqidagi targ‘ibot ishlarini yanada kuchaytirish;

yurtimizda do‘stlik va hamjihatlik muhiti tobora mustahkamlanib, mintaqamizdagiyaxshi qo‘shnichilik, tinchliksevar tashqi siyosat tufayli O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori yuksalayotgani, ishonchli hamkorlarimiz safi kengayib borayotganini chuqur tahlillar asosida ko‘rsatib berish;

navqiron avlodga Yangi O‘zbekistonning kelajagi sifatida alohida e’tibor qaratilayotgani, yoshlar bilan ishlash bo‘yicha noyob vertikal boshqaruv tizimining yaratilishi natijasida ularni zamonaviy kasb-hunarlarga o‘qitish, bandligini ta’minlash, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yurtimizda shakllangan samarali va ta’sirchan tizim mohiyatini ochib berish;

sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va san’at, sport sohalarini rivojlantirish, nuroniylar va xotin-qizlarga doimiy g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ijtimoiy dasturlar mazmuniga alohidae’tibor qaratish;

davlatimiz mustaqilligi, uning xavfsizligi va hududiy yaxlitligining ishonchli kafolatibo‘lgan O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining harbiy va jangovar qudratini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarni keng targ‘ib etish;

Mustaqillik bayrami munosabati bilan keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e’zozlash, “Mehribonlik”, “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlariga kiritilgan hamda ko‘makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ularga moddiy va ma’naviy yordam berish bilan bog‘liq xayriya tadbirlarini o‘tkazish;

Vatanimizning milliy istiqloli, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, shu yo‘lda jon fido etgan, mustabid tuzum davrida siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan ota-bobolarimizning xotirasini yod etish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalarigaalohida e’tibor qaratilishi;

f) Madaniyatvazirligi:

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda bir hafta muddatda Toshkent shahrida Mustaqillik bayramiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan teatrlashtirilgan konsert tomoshasining dasturi va ssenariysini ishlab chiqishi hamda uni yuksak g‘oyaviy-badiiy saviyada tayyorlash choralarini ko‘rishi;

Badiiy akademiya, Yozuvchilar uyushmasi, Jurnalistlar uyushmasi bilan birgalikda“Ona diyor – ranglar jilosida”, “Vatan uchun yashaylik!”, “Eng ulug‘, eng aziz” kabi an’anaviy ko‘rik-tanlovlarni yuqori darajada o‘tkazishni ta’minlashi;

Kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda yurtimiz istiqlolini tarannum etuvchi eng yaxshi qo‘shiq va musiqa asarlari tanlovlariningyakuniy bosqichini o‘tkazishi;

mazkur tanlovlarning g‘olib va sovrindorlarini Mustaqillik bayrami arafasida e’lon qilish va ularni tantanali ravishda taqdirlash choralarini ko‘rishi;

g) O‘tkaziladigan bayram tadbirlari:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda – tegishli mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hamda jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari hisobidan;

Toshkent shahrida – Respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjeti va Toshkent shahar mahalliy byudjeti mablag‘lari hisobidan teng ulushlarda moliyalashtirilishi belgilab qo‘yilganligi;

h) O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, “Dunyo” axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Mustaqillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilganligi inobatga olinsin.

3. Andijon viloyatida O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha viloyat komissiyasining tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Andijon shahrida O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha shahar komissiyasining tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Shokirov, shahar madaniyat bo’limi (D.Ikromova), Ma’naviyat va ma’rifat markazi shahar bo‘limi (R.Jo’raboeva), shahar iqtisodiyot va moliya bosh bo’limi (U.To’raqulov) hamda manfaatdor korxona va tashkilotlar bilan birgalikda mazkur qarorda belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda joylarda tizimli ravishda ish tashkil etib, ijrosini o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlasin.

6. Shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Shokirov, shahar madaniyat bo’limi (D.Ikromova), Ma’naviyat va ma’rifat markazi shahar bo‘limi (R.Jo’raboeva) bilan birgalikda ikki kun muddatda:

Andijon viloyatida “Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy amaliy, ma′naviy-ma′rifiy tadbirlar hamda targ‘ibot-tashviqot ishlari dasturini ishlab chiqsin;

Hududlarda keng aholi qatlamlari o‘rtasida Mustaqillik bayramiga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy anjumanlar, uch avlod uchrashuvlarini, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar, milliy kino kunlari, sayillar, madaniyat va sport tadbirlari, gastronomik festivallarni samarali o‘tkazish maqsadida atoqli ilm-fan namoyandalari, madaniyat va san’at arboblari, taniqli sportchilar, keng jamoatchilik vakillaridan iborat targ‘ibot guruhlarini shakllantirsin.

7. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Nishanov, hokim o‘rinbosari Sh.Shokirov, shahar madaniyat bo’limi (D.Ikromova), shahar iqtisodiyot va moliya bosh bo’limi (U.To’raqulov) bilan birgalikda:

O‘tkaziladigan bayram tadbirlarni tegishli mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hamda jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari hisobidan moliyalashtirilishini ta’minlasin.

8. Shahar ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirirsh boshqarmasi (B.Bahromov), tibbiyot birlashmasi (M.Mirzaahmedova), Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi bilan hamkorbirgalikda tadbirlar o‘tkaziladigan joylarda jamoat tartibini saqlash hamda tibbiy postlar va tez tibbiy yordam guruhlarini tashkil etish choralarini ko‘rsin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Shokirovga yuklatilsin.

Andijon shahar hokimi **G.Abduraxmanov**

Andijon shahar hokimining
2024-yil 21-avgustdagi
330-1-29-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Andijon shahar hokimining
2024-yil ____-avgustdagi
_____-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 18-
iyuldagi PQ–264-son
qaroriga ilova

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha respublika komissiyasining TARKIBI

1.	A. Aripov	–	O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, *Respublika komissiyasi raisi*
2.	X. Sultonov	–	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi
3.	O. Abdurahmonov	–	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari
4.	Z. Mahkamova	–	O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari
5.	O. Nazarbekov	–	madaniyat vaziri, *Respublika komissiyasi raisining o‘rinbosari*
6.	Sh. Umurzakov	–	Toshkent shahar hokimi, *Respublika komissiyasi raisining o‘rinbosari*
7.	B. Saidov	–	tashqi ishlarvaziri
8.	B. Qurbonov	–	mudofaa vaziri
9.	P. Bobojonov	–	ichki ishlar vaziri
10.	A. Qo‘ldoshev	–	favqulodda vaziyatlar vaziri
11.	R. Jo‘rayev	–	Milliy gvardiya qo‘mondoni
12.	Q. Sharipov	–	oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

13. H. Umarova – maktabgacha va maktab ta’limi vaziri
14. B. Musayev – kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri
15. Sh. Shermatov – raqamli texnologiyalar vaziri
16. A. Ikramov – sport vaziri
17. A. Xudoyorov – sog‘liqni saqlash vaziri v.b.
18. I. Norqulov – iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o‘rinbosari
19. Q. Quronboyev – O‘zbekiston mahallalari uyushmasi raisi
20. Q. Rafiqov – O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi
21. S. Turdiyev – O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi respublika boshqaruvi raisi
22. B. Yuldashev – Fanlar akademiyasi prezidenti
23. A. Xodjayev – Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori
24. R. Qurbonov – Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi raisi
25. Sh. Rizayev – Kinematografiya agentligi direktori v.b.
26. A. Sa’dullayev – Yoshlar ishlari agentligi direktori
27. A. Jo‘raboyev – O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisi
28. A. Ko‘chimov – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori
29. A. Nuridinov – O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi
30. O. Hasanov – Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari
31. S. Saidov – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi
32. R. Abdullayev – O‘zbekiston Kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi

33. Sh. Qudratxo‘ja – O‘zbekiston Milliy media assosiatsiyasi raisi
34. X. Salimov – O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi v.b.
35. B. Hasanov – Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari muzeyi direktori
36. *Lavozimiga ko‘ra* – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlari
37. F. Qosimov – Vazirlar Mahkamasining departamenti mudiri, *Respublika komissiyasi kotibi*

Izoh. *Respublika komissiyasi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*

Andijon shahar hokimining
2024-yil 21-avgustdagi
330-1-29-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Andijon shahar hokimining
2024-yil ____-avgustdagi
_____-son qaroriga
2-ilova

Andijon viloyat hokimining 2024-yil
3-avgustdagi 288-1-0-Q/24-son
qaroriga 2-ilova bilan tasdiqlangan

Andijon viloyatida O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha viloyat komissiyasining

TARKIBI

№	F.I.Sh	Ish joyi va lavozimi
1.	Sh.Abdurahmonov	Andijon viloyat hokimi, viloyat komissiyasi raisi
2.	D.Karimov	viloyat hokimining birinchi o‘rinborsari, komissiya raisining o‘rinbosari
3.	K.Komilov	Viloyat hokimining o‘rinborsari, komissiya raisining o‘rinbosari
4.	I.Xolmatov	Viloyat hokimining o‘rinborsari, komissiya raisining o‘rinbosari
5.	B.Xamrayev	Viloyat hokimining o‘rinborsari, komissiya raisining o‘rinbosari
6.	R.Arziyev	Viloyat hokimining o‘rinborsari, komissiya raisining o‘rinbosari
7.	G.Axmedova	Viloyat hokimining o‘rinborsari, komissiya raisining o‘rinbosari
8.	U.Raximov	Viloyat hokimligi kotibyat mudiri
9.	G‘.Abdurahmonov	Andijon shahar hokimi, komissiya raisining o‘rinbosari
10.	E.Xolmirzayev	Viloyat hokimligi yetakchi mutaxassisi
11.	M.Sattarova	Madaniyat boshqarmasi boshlig‘i
12.	D.Isomiddinov	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i
13.	M.Maripjonov	Mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig‘i
14.	A.Rahmatullayev	Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i
15.	B.Ashurov	Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i
16.	A.Ablyakimov	Milliy gvardiya Andijon viloyati bo‘yicha boshqarmasi
17.	O‘.Shukurov	Maktabgacha va maktab ta’limi boshqamrasi boshlig‘i
18.	M.Madazimov	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i
19.	Sh.Mamajonov	Sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i
20.	Z.Samadov	Raqamli texnologiyalar boshqarmasi boshlig‘i
21.	O‘.Toshpo‘latov	Sport bosh boshqarmasi boshlig‘i

22.	A.Nurmatov	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i
23.	Q.Parpiyev	Kasaba uyushmalari toshkilotlari birlashmasi viloyat kengashi raisi
24.	M.Nishanov	Mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig‘i
25.	O‘.Axunov	O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi viloyat bo‘limi rahbari raisi
26.	Z.Tadjibayev	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i
27.	O.Yuldashev	Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i
28.	A.Israilov	Viloyat teleradiokompaniyasi direktori
29.	A.Nurmatov	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi rahbari
30.	X.Qo‘chqarova	O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi rahbari
31.	Lavozimiga ko‘ra	Tuman (shahar) hokimlari

Andijon shahar hokimining
2024-yil 21-avgustdagi
330-1-29-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Andijon shahar hokimining
2024-yil ____-avgustdagi
_____-son qaroriga
3-ilova

Andijon shahrida O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha shahar komissiyasining

TARKIBI

№	F.I.Sh	Ish joyi va lavozimi
1.	G’.Abdurahmonov	Andijon shahar hokimi, shahar komissiyasi raisi
2.	Sh.Nishanov	shahar hokimining birinchi o‘rinborsari, komissiya raisining o‘rinbosari
3.	Sh.Shokirov	shahar hokimining o‘rinborsari, komissiya raisining o‘rinbosari
4.	F.Ergashev	shahar hokimining o‘rinborsari, komissiya raisining o‘rinbosari
5.	U.Mahmudov	shahar hokimining o‘rinborsari, komissiya raisining o‘rinbosari
6.	N.Dehkanova	Viloyat hokimining o‘rinborsari, komissiya raisining o‘rinbosari
7.	B.Bahramov	Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirirsh boshqarmasi boshlig‘i
8.	M.To’htaohunov	shahar soliq inspeksiyasi boshlig‘i
9.	D.Ikramova	Madaniyat bo’limi boshlig‘i
10.	U.To’raqulov	Iqtisodiyot va moliya bo’limi boshlig‘i
11.	D.Mullajonov	Mudofaa ishlari bo’limi boshlig‘i
12.	I.Azizov	Favqulodda vaziyatlar bo’limi boshlig‘i
13.	Kelishuvga asosan	Milliy gvardiya viloyat bo‘yicha boshqarmasi boshlig‘i o’rinbosari
14.	A.Usmonov	Maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi boshlig‘i
15.	M.Mirzaahmedova	Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
16.	A.Yusupov	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo’limi boshlig‘i o’rinbosari
17.	Z.Asranov	Mahallalar uyushmasi shahar bo’limi boshlig‘i
18.	S.Yusufov	O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi shahar bo‘limi raisi
19.	K.Rustambekov	Yoshlar ishlari shahar bo’limi boshlig‘i
20.	Kelishuvga asosan	Viloyat teleradiokompaniyasi direktori o’rinbosari
21.	R.Jo’raboeva	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi shahar bo‘limi rahbari

Izoh: *shaharkomissiyasi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga tayinlangan shaxslar kiritiladi.*